

MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARIDA BOLALARGA TA'LIM-TARBIYA BERISHNING MAZMUN, MOHIYATI

Omonov Xasan Sulaymonovich,

Musiqqa madaniyati fakulteti dekani, dots.

Ummatova Ma'mura Mirsol qizi,

2-kurs magistri

Annatatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarga ta'lim-tarbiya berishda ularga musiqa sirlarini o'rgatish orqali go'zallikga xis uyg'otish, ma'naviy kamol topishida zavq-shavq olishda badantarbiya mashg'ulotlarini tarkib toptirish o'z aksini topgan.

Kalit so'zlar: Ta'lim, tarbiya, muassasa, musiqa, zavqlanish, shavq, ma'naviy, ma'rifiy, huzurlanish, taskin topish, mushohada qilish, inson.

*Musiqiy tarbiya - bu musiqachi
tarbiyasi emas, inson tarbiyasidir*

V. A. Suxomlinskiy

Musiqa ulkan ta'sirchan kuchga ega bo'lgan tarbiya vositasidir. Musiqa o'zining jozibasi bilan inson qalbini rom etadi. U kishi ruhiyatiga hayotbaxsh kuch bag'ishlaydi. Musiqa kishilarning zavqlanishi, huzurlanishi, rohatlanishi, maroqli dam olishi, taskin topishi, fikrlashi va mushohada qilishiga ko'makdosh bo'ladi. Ayni bir paytda, musiqa kishilarning ulug' ishlarga safarbar etuvchi qudratli kuchga ham ega.

Shu bois bo'lsa kerak, Sharqning buyuk mutafakkirlari Forobiy, ibn Sino, Beruniy, Axmad Yassaviy, Abduraxmon Jomiy, Alisher Navoiylar o'z ijodlarida musiqa san'atiga alohida e'tibor qaratganlar, uni ulug'laganlar. San'atni inson qalbi va ruhiyatining jon ozig'i deb bilganlar.

San'at va san'atkorni doimo qadrlaganlar. Ularning ta'kidlashlaricha chinakam san'atga oshno bo'lgan madaniyatli va ma'naviyatli kishilar yurt obrusini ko'taradilar, o'zlari esa xalq hurmatida bo'ladilar.

Shu asnoda birinchi Prezidentimiz I.A.Karimovning «Kelajagi buyuk davlat, eng birinchi navbatda, bo'lajak fuqarolarning madaniyati, ma'lumoti va ma'naviyati haqida g'amxo'rlik qilmog'i zarur», «Aql zakovatli, yuksak ma'naviyatli kishilarni tarbiyalay olsakkina, oldimizga qo'ygan maqsadlarga erisha olamiz, yurtimizda faravonlik va taraqqiyot qaror topadi. Agar shu muammoni yecha olmasak barcha toat-ibodatlarimiz bir pul: taraqqiyot ham kelajak ham, faravon hayot ham bo'lmaydi!¹» - degan qanotli so'zlari naqadar oqilona, ma'naviy-ma'rifiy yo'nalishdagi davlatimiz siyosatini belgilab beruvchi o'ziga xos dastur amal bo'ldi desak yanglishmaymiz.

Dono xalqimiz qadim-qadimdanoq musiqa va qo'shiqni o'z ijtimoiy va madaniy hayotlarini muhim bo'lagi deb bilganlar. Farzandni qo'shiq aytishga, soz chalishga o'rgatish oila orzusi sanalgan, xonadonda yaxshi niyat bilan biron-bir cholg'u sozi saqlanishi odat qilingan.

Yoshlik - inson umrining bahori. Inson yoshligidan nafosat olamiga jalb etilmasa, eng ezgu fazilatlar ruhida tarbiyalanmasa, keyinchalik turmush chorrahalarida dovdirab qoladi. Shuning uchun ham ma'naviy tarbiyaning muhim qismi - musiqa saboqlari berishni yoshliqdan boshlash lozim.

¹ Ислом Каримов. «Юксак маънавият - енгилмас куч». -Т.,«Маънавият».2008 й.

Sharqning ibn Sino, Forobiy, Beruniy, Kavkabiy, hazrat Navoiy, Umar Hayyom, Jomiy kabi jahonga nom taratgan buyuk allomalari ham musiqa ilmiga katta e'tibor berganliklarini ko'ramiz, musiqa san'ati inson tarbiyasida muhim o'rin tutishligini, kishi madaniyati va umuman ma'naviyatida ustivor o'rinda turishligini baralla ta'kidlaganliklarini bilamiz.

Aristotel ta'biri bilan aytganda, «Musiqa qalbning axloqiy-estetik jihatlariga ta'sir ko'rsata olish layoqatiga qodir. Modomiki, musiqa shunday xususiyatlarga ega ekan, demak u yoshlarni tarbiyalash vositalari qatoriga kiritilmog'i lozim²».

Abu Ali ibn Sino faqatgina shifokor emas, taniqli musiqashunos ham edi. Hatto g'ijjakning yaratilishi bilan bog'liq rivoyat ham Ibn Sinoga bag'ishlangan: go'yoki bu cholg'u asbobini ixtiro qilgan va unda kuy chalgan odam ulug' hakim emish. «Kitob ash-Shifo» asarida yozilishicha, musiqa kishi ruhini davolovchi, inson qalbiga kuchli ta'sir etuvchi estetik vositalardan biridir.

Alisher Navoiy nozik ta'b, yuksak zakovat egasi sifatida musiqani sevib tinglar, dil-dildan zavqlanardi. Musiqani sevmagan shoir qalbi huvillagan charbog', xazon bo'lgan bahordir. «Musiqani idrok etmagan shoir, nim shoirdir», - deydi Navoiy³.

Musiqa ulkan ta'birchan kuchga ega bo'lgan tarbiya vositasidir. Musiqa inson ruhiyatiga hayot baxsh kuch bera oladigan jon ozig'idir. U kishilarning zavqlanishi, huzurlanishi, rohatlanishi, maroqli dam olishi, taskin topishi, fikrlashi, falsafiy mushohada qilishi uchun yordam beradi.

Demak, musiqa faqat badiiy ijod, san'at turi bo'lib qolmasdan, balki ma'naviy madaniyatning muhim bir qismi sifatida ham o'rganilishi lozim.

...Oldin odamlarni moddiy boyitib borish, so'ngra ma'naviyat to'g'risida o'ylash kerak, deydigonlar bo'lmasalar kerak degan edi, - birinchi prezedentimiz

² *T.E.Соломонова. Ўзбек музикаси тарихи. –Т.: “Ўқитувчи” нашриёти. 1981-йил.*

³ *Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, Toshkent-1977.*

Islom Karimov, - ma'naviyat - insonning, xalqning, davlatning kuch-kudratidir. «U yo'q joyda hech qachon baxt-saodat bo'lmaydi.»⁴

Arastu yozgan ediki: «Musika ko'ngilga ahloqan ta'sir ko'rsatish qudratiga ega ekan, u albatta yoshlarni tarbiyalash qo'llanmalari qatoriga qo'yilmog'i lozim».

Musika va musiqashunoslik ilmini chuqur tadqiq qilgan buyuk alloma Forobiy ham musiqani ahloq bilan bog'liqligiga chuqur ishonch hosil qilgan edi:

Abduraxmon Jomiy o'zining «Musika haqida risola»sida maqomlar haqida fikr yuritib: «Bilki, kishiga lazzat baxsh etishdan iborat umumiy xususiyatlardan tashqari 12 maqomdan har biri, har bir ovoza va sho'ba maxsus ta'sir kuchiga ega. Masalan: Ushshoq, Navo, Bo'saliq tinglovchida qudrat va jasurlik uyg'otadi, vaholangki, ovoz bunday ta'sir kuchga ega emas», - deya xayratlangan.

Charlz Darvin san'atning zaruriyati hamda uning kishi ongi va axloqiga ta'siri to'g'risida bunday degan edi: «Agar menga qaytadan umr ko'rish nasib bo'lganda edi, men har kuni oz-ozdan she'riy asarlar o'qib borishni va ozroq musika tinglashni o'zimga odat qilib olgan bo'lardim». Agar juda yopig'lik chog'idanoq bola qalbiga musika asarining go'zalligi ta'sir ettirilsa, agar bola tovushlarda inson his-tuyg'ularining ko'p qirrali ma'nolarini sezsa, u hech qanday boshqa vositalar bilan erishib bo'lmaydigan madaniyat cho'qqisiga ko'tariladi. Musika ohanggi go'zalligini his etish, bola qarshisida o'z go'zalligini yaratadi - kichik inson o'z obro'-e'tiborini angelaydi.

«Musika tarbiyasi - bu musiqachini tarbiyalash degan gap emas, balki birinchi galda insonni tarbiyalash demaqqdir, - deganida *V.A.Suxomlinskiy* tamomila haq edi.

Buyuk musika san'atini seving va o'rganing, u sizda olam jahon ulug' hislar, jo'shqin fikrlar uyg'otadi. U sizni ruhan boyitadi, pok qiladi, kamolga yetkazadi.

⁴ Islom Karimov. «Юксак маънавият - энгилмас куч». -Т.,«Маънавият».2008 й.

Musiqqa tufayli siz o‘zingizda yangi kuch sezasiz, u tufayli turmush yangi rang va bo‘yokdarda jilo topadi».

«Musiqqa kishini hayotga chanqoqlikka o‘rgatadi, mehnat unumini oshiradi. Insonning hayotga bo‘lgan siyosiy, estetik qarashlari shakllanishida muhim rol o‘ynaydi. Inson musiqasiz yashashni tasavvuriga sig‘dirolmaydi. Musiqiy tovushlarsiz hayot kir va qashshoqdir», - degan edi buyuk kompozitor D.Shostakovich.

«Sharq musiqasi, - degan edi hurmatli birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov «Sharq taronalari» xalqaro musiqqa festivalining ochilish marosimidagi tabrik so‘zida, - Sharq falsafasi, Sharq dunyosining uzviy bir qismidir. Sharq musiqasining jahon marosimida tutgan o‘rni benihoya buyuk... Bu musiqqa ming-ming yillardan beri odamlar dilini poklab, ularni ruhan yuksaltirib kelmoqda. O‘zining nozik jozibasi bilan dunyo madaniyatiga ozuqa berib, umumbashariy qadriyatlarga munosib hissa qo‘shmoqda⁵».

Buyuk bastakor Lyudvig van Betxoven kuy to‘g‘risida gapirib, shunday deydi: **«Musiqqa - donishmandlik va falsafadan ham yuksakroq dil izhoridir».**

Kuylarimiz, navo-yu, xonishlarimiz bizning tilimizni bilmagan xalqlarga qanchalik ta’sir qilganini, kuy-g‘azallarimiz o‘zga yurt odamlari qalbiga singib ketishini ko‘rib, xayratda qolganmiz, - deydi mashhur sozanda Abduxoshim Ismoilov.

Musiqiy ta’limning eng asosiy vazifasi, o‘quvchilarni san’atning ajoyib va g‘aroyib olamiga yetaklash orqali ularni go‘zallik va nafosat tuyg‘ularini o‘stirish, olam haqidagi tushuncha va tasavvurlarini boyitish, badiiy didlarini to‘g‘ri shakllanib borishiga yordamlashish, ularda axloqiy sifatlarni shakllantirish va eng asosiysi, san’at

⁵ Ислом Каримов. «Юксак маънавият - энгилмас куч». -Т.,«Маънавият».2008 й.

vositasida yosh o'quvchilarda Vatanga muhabbat hislarini tarbiyalash, ma'naviyatini o'stirib, borishdan iboratdir.

Bu vazifalar musiqa o'qituvchisiga yuklatiladi. Bu jiddiy, pedagogik va psixologik jihatdan birmuncha murakkab bo'lgan vazifalar qanday yo'llar bilan bajariladi? Buning yo'l va vositalari ko'p. Shulardan biri o'quvchilarning ma'naviyatini o'stirishni ta'minlash. Bu ham bir qarashda murakkab ko'rinadi. Lekin, musiqa o'qituvchisi yetarli bilimli bo'lsa, o'z ishini sevsa, bolalar bilan ishlash unga bahra bersa albatta maqsadga erishish mumkin.

Yoshlarni mustaqil hayotga tayyorlash, ularning did va ehtiyojlarini o'stirib borish bobida qanchalik ko'p izlansak, tajribalarni qo'llasak, buning samarasi shunchalik yuqori bo'ladi.

Iste'dodli yoshlarimizning, yigit-qizlarimizning o'z qiziqqan sohalarida yetuk insonlar bo'lib yetishishi uchun tegishli shart-sharoitlar hali to'la yaratilgani yo'q.

Musiqa ta'limi va tarbiyasi sohasidagi ilg'or tajribalarni umumlashtirish, sinfdan tashqari musiqiy pedagogik amaliyot bo'yicha metodik adabiyotlarni mustaqil o'rganishga tayyorlash. Musiqiy asarlarning badiiy-pedagogik tahlili metodlari asoslarini berish. Ilmiy tadqiqotchilik ishlari boshlang'ich malakalarini hamda bolalarni musiqa san'ati vositasida o'qitish va tarbiyalash masalalariga to'g'ri yondashuvni shakllantirish.

Tobora rivojlanib chiroy ochib borayotgan O'zbekistonning kelajagini, ertasini yoshlarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Ajdodlarimizga munosib avlodni tarbiyalash bizga, endi yetishib chiqayotgan kadrlar zimmasiga mas'uliyatli va sharaflilarni, ya'ni bola tarbiyasini to'g'ri yo'lga qo'yish yuklatildi. Maktabgacha yoshdagi bolalar musiqa tarbiyasi, uning taraqqiyoti timsolida yurtimizning porloq kelajagi, davlatimizning buyukligini tasavvur etganining natijasiga ko'ra ta'lim tizimini qayta ko'rib chiqish, buning uchun pishiq - puxta o'ylangan, ma'lum maqsad va vazifalarni o'zida mujassamlashtirgan istiqbolli dasturlar talab etar edi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlantirish jarayoni oldiga qo'yilgan maqsad va vazifalarning bajarilishiga erishish uchun Prezedentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoevning 2019-yil 19-martda ilgari surilgan "Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish va ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish" bo'yicha 5 ta muhim tashabbusning 1- yo'nalishiga asosan yoshlarning musiqa, rassomlik, adabiyot, teatr va san'atning boshqa turlariga qiziqishlarini oshirish, iste'dodini yuzaga chiqarish musiqa fanining yangi davr talablari asosida o'qitilishini ta'minlash, xalqimizning nomoddiy meroslarini avlodlarga yetkazish, milliy turizmni yanada rivojlantirish, shuningdek, xalqlar orasida do'stlik, madaniy aloqalarni mustahkamlash oliy ta'lim muassasasi talabalari, bo'lajak pedagoglar zimmasiga, shuningdek, ta'lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan ustoz- murabbiylar zimmasiga ham katta mas'uliyat yuklaydi. «Uchinchi mingyillikning bolasi» tayanch dasturi asosida ishlar amalga oshiriladi. «Bolajon» tayanch dasturi maktabgacha ta'lim bilan shug'ullanadigan barcha muassasalar uchun bajarilishi zarur bo'lgan tayanch dastur hisoblanadi. Tayanch dasturining pirovard natijasi maktabgacha yoshdagi bolalar ta'lim-tarbiyasiga qo'yiladigan davlat talablarining bajarilishiga erishishdan, ya'ni maktabga jismonan, aqlan, ma'nan yetuk bolalarni tayyorlashdan iboratdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi qarorida 2020 – 6-noyabrdagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalari chora-tadbirlari to'grisidagi PF-6108-sonli farmoni ijrosini ta'minlash maqsadida «Ilk qadam» tayanch dasturi bolalarni rivojlantirish va maktabga tayyorlash jarayoni quyidagi **3 yo'nalishda** ishni amalga oshirilishini belgilab beradi:

1. Bolalarni jismonan rivojlantirish.

2. Bolalarning nutqi va tafakkurini rivojlantirish.

3. Bolalarni ma'nan rivojlantirishdir.

«Bolajon» tayanch dasturi bolalarni ma'nan rivojlanishida aynan musiqa mashg'ulotlarda bolani aqlan, jismonan va ma'nan yetuk qilib tarbiyalash ko'zda tutiladi.

Hozirgi kelajak avlodni tarbiyalashda san'at muhim o'rin tutadi. San'at insonparvarlik va odamiylik hamkorligi ruhida uning hissiyotini o'stirishda yordam berib, ijodkorlik qobiliyatini rivojlantiradi. Hozirgi zamon yoshlariga estetik idroklarini tarbiyalash borasida g'amxo'rlik qilar ekanmiz, san'at bilan muomala qilishdan hosil bo'ladigan his-hayajondan uni o'z hayoti va faoliyatida foydalana olishga o'rgatishimiz kerak. Shuni hisobga olganda musiqa orqali tarbiya berish estetik tarbiya tarmog'ining ajralmas qismi hisoblanib, bolalarda yoshlik chog'idan idrok etish, his etish, turmush va san'atdagi go'zallikni tushunish ishtiyoqi tarbiyalanadi va by kabi go'zallikni yaratishga intilish kuchayadi. Bolaning badiiy faoliyatga bo'lgan qiziqishi ortadi. Unda badiiy-ijodkorlik qobiliyati rivojlanadi. Musiqiy-estetik tarbiya demokratik jamiyat kishisini garmonik tarbiyalash yo'lida olib borilayotgan ulkan ishning tarkibiy qismiga aylanmog'i kerak, Ayniqsa, bolalar bilan musiqiy ish olib borish katta ahamiyat kasb etadi. Omma orasida musiqiy targ'ibot olib bormay turib, to'la qonli natijalarga erishib bo'lmaydi. Musiqiy tarbiya bolalarda erta yoshdan boshlanishi kerak. Musiqa bola qalbida kuchli emotsional his-tuyg'u uyg'otadi. Musiqa yordamida uning badiiy idroki o'sib, hissiyotini yanada boyitib boradi. Bolalarda musiqiy idrokini rivojlantirmay ularning musiqaga mehr-muhabbatini yetarli darajada qiziqitirmay turib, har tomonlama jismoniy, ma'naviy boy shaxsni shakllantirib va boshqa ijobiy sifatlarini tarbiyalab bo'lmaydi. Musiqaga yoshlikdan uyg'ongan qiziqish kishining keyingi musiqiy rivojiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Shunga ko'ra musiqani idrok etishning vazifasi va mazmunini aniqlash muhimdir. Bular shaxsning har tomonlama rivoji, jumladan, estetik tarbiyasi

vazifalari bilan bog‘liq umumiy maqsadlar bilan belgilanadi. Ma’lumki, bunday vazifalar bolalarni musiqa sohasidagi faoliyatlarga jalb etish, badiiy musiqaga nisbatan estetik idrok etishni va emotsional o‘zlashtirishni rivojlantirish, muhabbatni tarbiyalash, musiqiy qobiliyatlarini o‘stirish, musiqiy didni shakllantirish, qisqasi bolalarning badiiy ijodkorligi hamda iqtidorini rivojlantirish kerak. Musiqaning bola hissiyoti va intilishiga, uning mazmunini tushunish va his etishga katta ta’sirini hisobga olganda haqqoniy va voqelikni to‘g‘ri aks ettirgan musiqiy asardan o‘rinli foydalanish alohida ahamiyat kasb etadi. Ma’lumki, musiqali obrazlarning shakllanishining asosiy manbai tabiat va kishi nutqiga mos kelishiga, atrofimizdagi dunyo va undagi go‘zalliklarni idrok etishga bevosita bog‘liqdir. Shu borada musiqa mashg‘ulotlari mazmuni bolalar tomonidan bajaradigan qator faoliyatlarni taqozo etadi. Bulardan tinglash, kuylash, musiqiy ritmik harakatlar, musiqa cholg‘ularida ijro etish jarayonida bolalar ijrochiligi va ijodkorligi malakalari shakllanadi.

- o‘zbek milliy qo‘shiqlar va uning tarixi tahlil qilinib, ularning tarbiyaviy imkoniyatlari tavsiflanganligi;
- bolalarda mafkuraviy immunitetni shakllantirishning shakl, metod va vositalarining mazmuni, xususiyatlari aniqlanganligi bilan belgilanadi.

Xulosa qilib olganimizda maktabgacha ta’lim muassasalarida badan-tarbiya mashg‘ulotlarini musiqa ostida bajarish va shu orqali g‘oyaviy-estetik tarbiyalash, bolalar bilan tarbiyaviy ish olib borishda qo‘llaniladigan uslubiy tavsiyalar, senariylarda, maktabgacha ta’lim muassasalarida olib borilayotgan ma’naviy-ma’rifiy ishlarda bolalarga o‘z tengdoshlari orqali ta’sir o‘tkazish usulining ishlab chiqib, joriy etish usullari taklif etilganligida o‘z ifodasini topdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. M.Karimov, T.Usmonxo‘jaev “Xoreografiya mashqlari, badiiy gimnastika va xalq harakatli o‘yinlari”. Ilm ziyo nashriyoti. Toshkent-2005yil.
2. R.Karimova “O‘zbek raqslari”. “Cho‘lpon” nashriyoti. Toshkent-2003yil.
3. Ye.Konorova “Rimika”. “Cho‘lpon” nashriyoti. Toshkent-2008yil.
4. O.T.Ashurova. “Musika o‘qitishning innovatsion texnologiyalari” fanidan o‘quv uslubiy majmua. Navoiy-2012y.
5. O.T.Ashurova. “Maktab repertuari va praktikum” fanidan o‘quv uslubiy majmua. Navoiy-2012 yil.
6. O.T.Ashurova. “Bolalar musiqa adabiyoti” fanidan o‘quv uslubiy majmua. Navoiy-2012 yil.
7. O.T.Ashurova. “Musika o‘qitish nazariyasi va metodikasi” fanidan o‘quv uslubiy majmua. Navoiy-2012 yil.
8. J.G‘.Yo‘ldoshev, S.A.Usmonov. *Pedagogik texnologiya asoslari.* –T.: “O‘qituvchi” nashriyoti. 2004-yil.
9. O‘.Q.Tolipov, M.Usmonboeva. *Pedagogika texnologiyalarning tadbiiy asoslari.* –T.: “Fan” nashriyoti. 2006-yil.
10. V.N.Maksimova. *Mejpredmetnye svyazi v protsesse obucheniya.* –M.: “Prosvishenie”. 1988-god.
11. S.X.Yo‘ldosheva. *O‘zbekistonda musiqa tarbiyasi va ta’limining rivojlanishi.* – T.: “O‘qituvchi” nashriyoti. 1985-yil.
12. T.Ye.Solomonova. *O‘zbek musiqasi tarixi.* –T.: “O‘qituvchi” nashriyoti. 1981-yil.
13. I.Rajabiy. *Maqomlar masalasiga doir.* –T.: “Badiiy adabiyot” nashriyoti. 1963-yil.
14. D.B.Kobalevskiy. «Umumta’lim maktablarida musiqa dasturining asosiy tamoyil va uslublari» M. 1986y.

15. Ye.V. Nazaykinskiy. «Musiqaviy idrok psixologiyasi» T. 1990y.